

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta tizimining joriy etilishi va uning sog‘liqni saqlash tizimiga ta’siri.

Ismoilova Nigoraxon Mahmudjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘zbekistonda davlat tibbiy sugurtasi tizimi joriy etilishi mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi va aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda 2026-yilni so‘ngiga kelib davlat tibbiy sug‘urta tizimini barcha hududlarda joriy etish maqsad etib belgilangan. Ushbu tizimni ayrim hududlarda joriy etilishi bilanoq o‘z samarasini bergani va tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilagani jarayonni davom ettirish va tizimni takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: davlat tibbiy sug‘urtasi, ijtimoiy davlat, sog‘liqni saqlash, moliyalashtirish mexanizmi, elektron sog‘liqni saqlash, reimbursatsiya, profilaktika.

Kirish. Sog‘liqni saqlash tizimi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi hamda inson kapitali rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sharoitda tibbiy xizmatlar xarajatlarining ortib borishi aholini moliyaviy himoya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, tibbiy sug‘urta tizimi aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini kafolatli moliyalashtirish va soha samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtani joriy etish sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi — aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda tizimning moliyaviy barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Tibbiy sug‘urta tizimi — bu shaxsning kasallik, jarohat yoki boshqa sog‘liq bilan bog‘liq holatlar natijasida yuzaga keladigan tibbiy xarajatlarini to‘liq yoki qisman qoplaydigan sug‘urta turidir. Ushbu tizim sug‘urtalanuvchilarning muntazam badallari asosida shakllantiriladigan umumiy moliyaviy fond orqali faoliyat yuritadi. Tibbiy sug‘urta xizmatlari davlat, xususiy yoki notijorat tashkilotlari tomonidan boshqarilishi mumkin, va bu tizimning asosiy maqsadi sog‘liqni saqlash xizmatlari xarajatlarini kamaytirish va aholining tibbiy yordamga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir.

O‘zbekistonda davlat tibbiy sug‘urtasi tizimini joriy etish so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2024-yil 1-oktabrdan Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida boshlangan tizimni bosqichma-bosqich boshqa viloyatlarga ham joriy etish rejalashtirilgan bo‘lib, 2025-yildan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida kengaytirish ko‘zda tutilgan. Tizimni 2026-yil yakuniga qadar barcha

hududlarda to'liq tatbiq etish rejalashtirilmoqda. Davlat tibbiy sug'urtasining asosiy vazifasi fuqarolarning sog'lig'ini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan. Tizimda bepul ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalarining kafolatlangan paketi taqdim etiladi. Bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi, va bu tizimning moliyaviy asosini davlat mablag'lari, majburiy badallar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar tashkil etadi va fuqarolardan hech qanday ortiqcha pul undirilmaydi.

2024-yil 11-sentabrda qabul qilingan "Davlat tibbiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun ushbu tizimni mustahkamlashga yo'naltirilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun davlat tibbiy sug'urtasining asosiy prinsiplari, subyektlari, moliyalashtirish manbalari va kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmini belgilab berdi. Konstitutsiyaning 48-moddasiga muvofiq, har kim malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega, 57-moddada esa davlat fuqarolar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash choralari ko'rishi belgilangan. Ushbu normalar mamlakatda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning huquqiy poydevorini yaratadi.

5. Mazkur qarorning 4-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 2024-yilda quyidagi manbalar hisobidan 170 mlrd so'm yo'naltirilsin:

Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasidan — 71 mlrd so'm (shundan 21 mlrd so'm qoldiq mablag'lar);

Davlat budjetidan qo'shimcha ajratiladigan mablag'lardan — 50 mlrd so'm;

Sog'liqni saqlash vazirligiga respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida — 23 mlrd so'm;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetidan — 11 mlrd so'm;

Toshkent shahri mahalliy budjetidan — 10 mlrd so'm;

Sirdaryo viloyati mahalliy budjetidan — 5 mlrd so'm.

2025-yildan boshlab tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash bilan bog'liq zarur mablag'lar Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda nazarda tutiladi.

2026-yil 1-iyuldan boshlab, davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda tuman (shahar) va hududiy darajadagi tibbiyot muassasalarida rejali statsionar tibbiy yordamni elektron navbat asosida bepul olish huquqiga ega bo'ladigan shaxslar quyidagilardir:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yoki ijtimoiy soliq to'lovchilari;
- Soliq kodeksiga muvofiq mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun belgilangan miqdorlarda soliq to'lagan shaxslar;
- Voyaga yetmaganlar, ta'lim tashkilotlari o'quvchi-talabalari, homilador ayollar va ikki yoshga to'lmagan bolasini parvarishlayotgan shaxslar, mehnat organlarida ishsiz sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tganlar, davlat pensiyasini oluvchilar hamda Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarning a'zolari.

“Ijtimoiy davlat” konsepsiyasi davlatning aholi turmush darajasini ta'minlash, ijtimoiy xavflarni kamaytirish va jamoat xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatlarini yaratishga mas'ul ekanligini belgilaydi. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi aynan shu ijtimoiy davlat tamoyillarini ro'yobga chiqaruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'layotgan bo'lib, u fuqarolarga tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni kafolatlaydi va sog'liqni saqlash tizimini barqaror moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qonunda moliyalashtirishning natijaga yo'naltirilgan mexanizmlari, tibbiy xizmatlarni xarid qilish tartibi, elektron sog'liqni saqlash tizimlari orqali hisob-kitob yuritish hamda shaffof monitoring mexanizmlari mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, bemorlarni oilaviy shifokorlar orqali yo'naltirish, elektron retsept tizimi va xizmatlar sifati ustidan nazorat qilish tartibi huquqiy jihatdan tartibga solindi. Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasining maqomi, vakolatlari va javobgarligi aniq belgilanishi tizimning barqaror ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, davlat tibbiy sug'urtasi tizimi nafaqat amaliy mexanizm, balki qonun bilan mustahkamlangan ijtimoiy kafolat sifatida shakllanmoqda.

Jahon tajribasida davlat tibbiy sug'urtasi tizimi turli mamlakatlarda o'ziga xos yondashuvlar bilan amalga oshirilgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, masalan, barcha fuqarolar sog'liqni saqlashdan teng foydalanish uchun davlat sug'urtasidan foydalanadi. O'zbekiston ham Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganib, ushbu tizimni joriy etmoqda.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan qarorlar qabul qilingan va 2020-yilda Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilgan. Keyingi yillarda tizimni kengaytirish jarayoni jadallashtirilib, davlat tibbiy sug'urtasining jamg'armasi 2024-yilda Sog'liqni saqlash vazirligi tizimiga o'tkazilishi rejalashtirilgan. 2027-yilda esa mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

2024-yil 1-oktabrdan boshlangan islohotlar 2025-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida kengaytirildi. Joriy etilgan hududlarda 167 ta tibbiyot muassasasi bilan xizmatlar xaridi bo'yicha shartnomalar tuzilib, moliyalashtirishning zamonaviy usullari qo'llanilmoqda. Xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalariga "aholi jon boshiga", statsionar xizmatlar "har bir davolangan holat" asosida moliyalashtirilmoqda. Natijada, birlamchi tibbiy yordamga murojaatlar 20 foizga oshgan bo'lsa, tor mutaxassislarga murojaatlar 12 foizga, tuman va shahar shifoxonalarida davolanish holatlari esa 16 foizga kamaygan. Bu holat profilaktika va erta tashxislash tizimi kuchayganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, reimbursatsiya dasturi doirasida 28 turdagi dori vositalarini bepul berish amaliyoti yo'lga qo'yilib, qisqa muddat ichida 348 ming bemorga 718 mingta elektron retsept asosida qariyb 18 mlrd so'mlik dori vositalari taqdim etildi. Tizim samaradorligi infarkt bilan kasalxonaga yotqizilganlar sonining 2,5 foizga, miya qon aylanishi buzilishi bilan murojaatlarning esa 3,2 foizga kamayganida ham namoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari, asossiz gospitalizatsiyalar 40 foizdan 18 foizgacha qisqarib, tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish jarayoni jadallashti: 22,5 ming dona kompyuter texnikasi yetkazib berildi, muassasalar "Yagona tibbiy tizim"ga ulandi hamda 45 mingdan ortiq tibbiyot xodimi IT ko'nikmalar bo'yicha o'qitildi.

Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi sog'liqni saqlash tizimida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini kuchaytirishga qaratilgan muhim institutsional o'zgarish sifatida baholanadi. Shu bilan birga, davlat tibbiy sug'urtasining joriy etilishi ijtimoiy kafolatlarining huquqiy asosini yaratishda muhim o'rin tutadi va O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining barqaror va samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (shuningdek Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shveytsariya yoki Buyuk Britaniyada) ishlab, boshqa davlatda yashovchi shaxslar har ikki mamlakatda ham sug'urtalangan fuqarolar bilan teng shartlarda tibbiy xizmat olish huquqiga ega. Buning uchun ish joyi yoki pensiya to'layotgan mamlakatdagi sog'liqni sug'urtalash muassasasidan S1 shaklini olish hamda uni yashash mamlakatida ro'yxatdan o'tkazish talab etiladi. Ushbu hujjat shaxsning yashash davlatida to'liq tibbiy sug'urta qamroviga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Sug'urtalangan shaxsning oila a'zolari ham, agar ular YI hududida yashasa, odatda tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega. Biroq, chegaradosh hududda ishlab qatnovchi xodimlarning oila a'zolariga nisbatan ayrim mamlakatlarda faqat zarur davolanish holatida tibbiy yordam olish imkoniyati mavjud. Masalan, kasal bolani parvarish qilish uchun mehnat ta'tili olgan shaxslar uchun ham ma'lum holatlarda sug'urta to'lovlari bo'yicha cheklovlar kiritilishi mumkin, bu holatlar milliy qonunchilikka bog'liq. Agar bola yashash mamlakatidagi boshqa sug'urta tizimi orqali ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, ayrim to'lovlardan foydalanish cheklanishi ehtimoli mavjud.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi davlatlarining tajribasini o'rganib, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etishda samarali tizimlarni qo'llayotganini ko'rishi mumkin. Xususan, fuqarolarni tibbiy xizmatlar bilan ta'minlashda, ular o'rtasida tenglik va adolatni ta'minlash uchun zamonaviy moliyaviy boshqaruv va monitoring tizimlarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Yevropadagi tizimdan o'rganish, ayniqsa chegara hududlarida ishlayotgan fuqarolar uchun keng imkoniyatlar yaratish, hamda oilaviy sug'urta tizimini takomillashtirishga yordam berishi mumkin.

Aynan shu nuqtada, O'zbekiston fuqarolari ham, Yevropa Ittifoqi kabi, respublikadagi istalgan hududda tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda, davlat tibbiy sug'urtasi tizimi yurtimizda bosqichma-bosqich joriy etilayotgan bo'lsa-da, kelajakda barcha hududlarda yagona tibbiy sug'urta tizimi tatbiq etilishi orqali fuqarolar tibbiy xizmatlaridan teng sharoitda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu

esa, o'z navbatida, fuqarolar orasida sog'liqni saqlashda hududiy farqlarni bartaraf etish, barcha aholiga sifatli tibbiy yordamni yetkazish va ijtimoiy himoya tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda bu tizimni kengaytirish va to'liq joriy etish, Yevropa tajribasini hisobga olgan holda, davlatning tibbiy xizmatlarni taqdim etishdagi mas'uliyatini yanada kuchaytiradi hamda fuqarolar uchun sog'liqni saqlash sohasida yangicha imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini moliyaviy jihatdan barqarorlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini kuchaytirishga qaratilgan muhim institutsional islohot hisoblanadi. Amaliy natijalar profilaktika va resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari kuchayganini ko'rsatmoqda. Tizimning respublika bo'ylab to'liq tatbiq etilishi sog'liqni saqlash xizmatlaridan teng foydalanish, hududiy farqlarni kamaytirish va inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori.

Tibbiy sug'urta // Wikipedia. – Mavjud: https://uz.wikipedia.org/wiki/Tibbiy_sug%60urta

O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi tizimining ilk natijalari baholanmoqda // Uzdaily. – Mavjud: <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekistonda-davlat-tibbiy-sugurtasi-tizimining-ilk-natijalari-baholanmoqda/>

O'zbekistonda tibbiy sug'urta 2026 yilning oxirigacha to'liq joriy etiladi // Qalampir. – Mavjud: <https://www.qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-tibbiy-sugurta-2026-yilning-okhirigacha-tulik-zhoriy-etiladi-89634>

Davlat tibbiy sug'urtasi bo'yicha material // Gazeta.uz. – Mavjud: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/05/insurance/>

Health insurance cover when living abroad // European Union. – Mavjud: https://europa.eu/youreurope/citizens/health/when-living-abroad/health-insurance-cover/index_en.htm